

**KUSHON IKONOGRAFIYASIDA BOSH KIYIM VA HARBIY TIMSOLLAR:
TANGALAR, HAYKAL VA DEVORIY SURATLAR ASOSIDA TAHLIL**

Ozodjon Eliboyev

FA Tarix instituti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17492295>

Annotatsiya. Maqolada Kushonlar davrida shakllangan harbiy va siyosiy ikonografiyaning asosiy unsurlari — bosh kiyimlar, dubulg‘alar va ularning ramziy mazmuni tahlil qilingan. Tadqiqotda tangalar, haykallar hamda devoriy suratlar asosida hukmdor timsolining siyosiy va diniy mohiyati yoritiladi. Har bir bosh kiyim shakli, bezagi va undagi timsollar orqali hokimiyatning ilohiy legitimatsiyasi, qudrat va osmoniy himoya g‘oyalari ifodalangan. Muallif Kushon ikonografiyasida harbiy libos va atributlarning davlat mafkurasi bilan uzviy bog‘liqligini asoslaydi. Ushbu yondashuv Kushon san‘atini nafaqat estetik, balki ideologik tizim sifatida ham baholash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Kushon davri; Gandhara san‘ati; Ajanta rasmlari; podshoh ikonografiyasi; oyoq kiyimi; etik; kiyim madaniyati; san‘at va mafkura; ramziy ma‘no; ijtimoiy maqom; tangalar; haykaltaroshlik an‘analari; diniy tasvirlar; siyosiy ifoda; madaniy o‘zaro ta‘sir.

Аннотация. В статье анализируются основные элементы военной и политической иконографии кушанского периода — головные уборы, шлемы и их символическое значение. На основе нумизматических, скульптурных и настенных изображений раскрывается идеологическое содержание образа правителя. Форма и орнаментация головных уборов, а также используемые эмблемы отражают идеи божественной легитимации власти, могущества и небесной защиты. Автор обосновывает взаимосвязь военного костюма и царских атрибутов с государственной идеологией кушанской эпохи. Такой подход позволяет рассматривать кушанское искусство не только как эстетический феномен, но и как важный элемент политико-религиозной системы империи.

Ключевые слова: Эпоха Кушанов; искусство Гандхары; росписи Аджанты; царская иконография; обувь; сапоги; культура одежды; искусство и идеология; символическое значение; социальный статус; монеты; скульптурные традиции; религиозные образы; политическая экспрессия; культурное взаимодействие.

English. The article analyzes the main elements of Kushan military and political iconography — headgear, helmets, and their symbolic meanings. Based on numismatic, sculptural, and mural evidence, it reveals the ideological message embodied in the ruler's image. The form, ornamentation, and emblems of the headgear reflect concepts of divine legitimacy, royal power, and celestial protection. The author argues for a close interrelation between military costume, royal insignia, and the state ideology of the Kushan period. This approach allows Kushan art to be understood not merely as an aesthetic phenomenon but as an essential component of the empire's politico-religious system.

Keywords: Kushan period; Gandhara art; Ajanta paintings; royal iconography; footwear; boots; dress culture; art and ideology; symbolic meaning; social status; coins; sculptural tradition; religious imagery; political expression; cultural interaction.

Kirish

Kushon sulolasi chogʻi nafaqat siyosiy va iqtisodiy jihatdan, balki madaniy, diniy hamda sanʼat sohasida ham muhim sintez davri boʻldi. Ayniqsa, Kushon hukmdorlik ikonografiyasida tangalar, haykaltaroshlik va devoriy tasvirlar orqali ifodalangan hokimiyat timsollari, bosh kiyimlar va harbiy atributlar davlat mafkurasi va ilohiy legitimatsiya gʻoyalarining muhim ifodasi sifatida namoyon boʻladi. Mazkur maqola Kushon ikonografiyasida aks etgan bosh kiyimlar, oyoq kiyimlari va ularning siyosiy-ideologik mazmunini manbashunoslik va arxeologik materiallar asosida tahlil qilishga qaratilgan.

Asosiy qism

Miloddan avvalgi 2-yuzyillikning ikkinchi yarmi va milodiy 1-yuzyillik boshlarida Turon siyosiy jarayonini tubdan oʻzgarish davrini boshdan kechirdi. Bu davrda Turon tarixida muhim rol oʻynagan Yue-chjilar, xitoy manbalarida Da-ruziy (Da Yue-chji)¹ nomi bilan qayd etilgan va sharqiy Turkiston hamda Tangritogʻ (Tyan-Shan) togʻlarining gʻarbiy etaklaridan boshlab, asta-sekin Janubiy Turon tomon siljiy boshladilar va Janubiy Turonda Kushon sulolasi shakllanishiga olib keldi. Buning asosiy sabi esa yuechjilar Usunlar va Hunlarning qoʻshma qoʻshinlari tomonidan magʻlubiyatga uchrashi edi. Bu haqida aniqroq maʼlumotlar qadimgi Xitoy manbalarda uchraydi.

Xususan Hunnu qabilasi oʻrtasidagi mojaroni qayd etadi. Bu toʻqnashuv taxminan miloddan avvalgi 209–207 yillarda boshlangan va “Xanshu” manbasiga koʻra, Xunnu sardori Modu Yue-chji boshligʻining kallasidan sharob idishi (qadah) yasatgani bilan tugagan². Aynan shu mojaro natijasida Yue-chji oʻz hududlarini Gansu viloyatini (Tarim havzasining sharqiy chegarasi) tark etishga majbur boʻldilar.

Gʻarbga siljigan Yue-chji avval Tyan-Shan togʻlaridagi Urumchi atrofida yoki undan ham gʻarbda Ili vodiysi va Balxash koʻli yaqinlarida vaqtincha joylashdilar. Ammo ular bu yerda ham miloddan avvalgi 174 yilda Xunnu yoki Usun (Vusun) qabilalari tomonidan yana hujumga uchradilar va magʻlubiyatga uchradi. Aynan shu voqealardan soʻng Yuechjilar janubiy Turonga koʻchib kela boshladi.

Dastlab ular Sak (massaget) va Toʻxar qabilalari bilan toʻqnash kelib, asta-sekin Amudaryoning quyi havzalarida joylashgan Buxtardagi hujum qildi. Buning natijasida miloddan oldingi 2-yuzyillik oxirlariga kelib Buxtarda Yunon hukumronligi chogʻi yakun topdi, oʻrniga Yuechjilarning qabilalar ittifoqi vujudga keldi. Bu oʻrinda bu gʻalabalarga asosiy sabablardan biri 100 000 dan ziyod otli qoʻshini bazi manbalarda oʻq yoy oʻtuvchilari borligi³.

¹ Хўжайев А. Ўзбек халқи ва давлатчилиги тарихи манбалари туркистон Хитой ёзма манбаларид. Тошкент. 2024. – Б. 365

² Skinner, Michael. Marks of Empire: Extracting a Narrative from the Corpus of Kuṣāṇa Inscriptions. 2017. Pp. 25-26.; Хўжайев А. Ўзбек халқи ва давлатчилиги тарихи манбалари туркистон Хитой ёзма манбаларид. Тошкент. 2024. – Б. 372.

³ Хўжайев А. Ўзбек халқи ва давлатчилиги тарихи манбалари туркистон Хитой ёзма манбаларид. Тошкент. 2024. – Б. 372; Акеров Т. А. Усуни-кыргызы Кыргыз на просторах Евразии (Миграционные и этнические процессы кочевников Притяньшаня и сопредельных регионов в VIII- XIV вв.). Бишкек. 2020. - С. 108. Nikonorov V. P. *The Armies of Bactria. Vol. I.* Yorkshire, UK. 1997. P. 50.

Arxeologik va yozma manbalarga ko'ra, dastlabki bosqinchilik davrida Yue-chjilar bir necha mustaqil qabilalarga bo'lingan bo'lib, ularning har biri Amudaryoning janubiy va shimoliy qirg'oqlarida o'z hududini mustahkamlashga intilgan.

Milodiy 1-yuzyillik kelib, Yuechjilarning beshta qabilasi ichida eng kuchlisi Guyshuan (Kushon) qabilasi yabg'usi Syujsyue (Kujula Kadfiz) qolgan to'rt qabilalarni o'ziga bo'ysundiradi. Shu tariqa Kushonlar davlati shakllanadi va uning asoschisi sifatida Kujula Kadfiz tilga olinadi⁴.

Yuechjilarning g'arbga siljishi va ularning siyosiy ustuvorligi natijasida shakllangan yangi siyosiy tuzilma Kushon davlati, o'z mohiyatiga ko'ra, harbiy an'analar va mahalliy madaniy unsurlarning sinteziga asoslangan edi. Bu sintez nafaqat boshqaruv va harbiy tizimda, balki davlat timsollarida, hokimiyat ifodasida ham yaqqol namoyon bo'ldi. Ayniqsa, hukmdorlik ikonografiyasida (tangalardagi tasvirlar, haykal va devoriy suratlarda) siyosiy qudrat, ilohiy himoya va saltanat g'oyalarining ramziy ifodasi o'z aksini topgan. Shu boisdan Kushon davrining moddiy madaniyati, xususan harbiy kiyimlar va bosh kiyimlar tizimi, ularning siyosiy mafkurasi va hokimiyat konsepsiyasini o'rganishda muhim manba vazifasini o'taydi.

Kushon imperiyaning davlat boshqaru harbiy boshqaruv tizimiga asoslangani tufayli devoriy suratlarda ham jang sahnalari va g'alaba tasvirlarini juda ko'p uchratishimiz mumkin.

Ular orqali shu davr ijtimoiy munosabatlar va odamlarning kiyinish tarzlarini aniqlashimiz mumkin.

Xususan bu suratlarda harbiy kiyimlar haqida ma'lumotlar nisbatan ko'proq, xususan Xolchayondagi tasvirlarida Kushon jangchilari liboslari o'ziga xos bo'lib, ular quyidagicha tavsiflanadi: Qizil yoki och yashil rangli kaftanlar zich to'qilgan matodan tayyorlangan, beldan pastga qarab kengayadigan, dumaloq yoki uchburchak yoqali. Bo'yin qismida ilgaklar bilan yopiladigan ruba qorin yoki ko'krak qismida tugma yoki ilgak bilan mahkamlanadi. Ko'krakdan belgacha kamar bilan bog'langan, bu jihat askarning harbiy holatini bildiradi. Shalvarlar – keng, dumba va son qismlarida doka bilan bezatilgan, to'piqqa yaqin qismlarda bog'langan⁵.

Kushon davrida oyoq kiyimlari tanaga yopishadigan, harakatga qulay tarzda tikilgan bo'lib, ular nafaqat amaliy, balki marosimiy maqsadga ham xizmat qilgan. Bu kiyimlar shakl va bezak jihatidan nafis, shu bilan birga erkin harakatlanishga imkon beruvchi xususiyatga ega edi.

Kushon tangalarida podshohlar baland etik kiygan holda tasvirlangan. Shuningdek, Ajanta g'orlaridagi devor rasmlarida ham oyoqni to'liq yopuvchi etik va oyoq kiyimlari bilan tasvirlangan shaxslar uchraydi⁶. Tuproq qal'adan ham topilgan devoriy suratda harbiy jangchilar tasviri ham bor. Uning ahamiyatli chihati harbiy jangchilar antropologik jihatidan shimoliy Hindiston odamlariga oxshaydi⁷.

⁴ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент. 2001. – Б. 368.; Хўжайев А. Ўзбек халқи ва давлатчилиги тарихи манбалари туркистон Хитой ёзма манбаларид. Тошкент. 2024. – Б. 373. Ставийский Б.Я. Кушанская Бактрия: Проблемы истории и культуры. М., 1977. - С. 17.; Ртвеладзе Э.В., Алимова Д.А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. 1-жилд. Тошкент. 2021. – Б. 220.

⁵ Пугаченкова.Г. Скульптура Халчаяна. Москва. 1971. С. 64.

⁶ Siddiqui K. S., Hakal M. Depiction of Footwear in Gandhara Art: An Appraisal //Journal of Asian Civilizations. – 2018. – Т. 41. – №. 1. P. 82.

⁷ Rosenfield, John M. *The Dynastic Arts of the Kushans*. Berkeley: University of California Press, 1967. pp. 68-69.

Bosh kiyimlar va belgilar: dubulgʻalar yuzasida ikki metall yarim gumbazdan iborat boʻlib, old va orqa tomondan uzluksiz tasma yoki qavariq chiziq bilan bogʻlangan. Bundan tashqari bu dubulgʻalar quloqni toʻliq yopib turgan. (xususan, Halchayan va Surx-Kotalda).

Tangalarda ham bosh kiyimlar aks etgan boʻlib, bular Huvishka tangalarida podshoh tasvirlarida namoyon etilgan murakkab bosh kiyimlar hukmdorlik shukuhi va saroy dabdabasining yuqori darajada rivojlanganini koʻrsatadi. Eng eʼtiborga molik unsurlar dubulgʻalar boʻlgan.

Ularning bir necha turlari Huvishka, shuningdek, Vima va Kanishka tangalarida uchraydi.

Biroq bu dubulgʻalar Kushon davri haykaltaroshlik yodgorliklarida kamroq aks etgan.

Ushbu bosh kiyimlarning ayrim qismlarining ramziy maʼnosi hozircha aniq emas, hattoki ularning shakl va tuzilishi ham baʼzan toʻliq tushunilmaydi. Quyida ularning asosiy turlari tasnif va tavsif asosida keltiriladi⁸.

Birinchi tur — baland gumbazsimon, silindr shaklli dubulgʻa boʻlib, uning old qismida gʻayrioddiy tarzda oldinga chiqib turgan soyabonli qismi mavjud. Yon tomonlari toʻlqinli naqshlar bilan bezatilgan, tepasida esa eʼtiborga molik choʻqqi bezagi joylashgan. Bu turdagi dubulgʻa faqat Vima tangalarida uchraydi.

Ikkinchi tur — past, qopqoqsimon bosh kiyim boʻlib, uning qirrasi ehtimol qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan. Yon tomonida toʻlqinli naqsh va tepasida choʻqqi bezagi mavjud. Bu shakl Kanishka I davrining eng keng tarqalgan turi hisoblanadi.

Uchinchi tur — past, uchli qopqoqsimon bosh kiyim boʻlib, shaklan Frigiya bosh kiyimiga oʻxshaydi, biroq yanada mustahkam tuzilgan. Uning yon tomonlarida doira shaklidagi bezaklar, yuqorisida esa choʻqqi bezagi bor. Bu tur Kanishka I hamda Huvishka tangalarida uchraydi.

Toʻrtinchi tur — tor, choʻqqisi yumaloq dubulgʻa, shaklan Parfiya shohi Mitridat II dubulgʻasiga oʻxshash. Uning peshonasida pat va qimmatbaho toshdan yasalgan nishon mavjud.

Choʻqqi atrofida marvarid naqshi oʻtkazilgan, yon tomonida esa doira shaklidagi, ehtimol oy timsolini eslatuvchi bezak joylashgan. Bu turdagi bosh kiyim faqat Huvishka tangalarida kuzatiladi.

Beshinchi tur — baland, uchli bosh kiyim boʻlib, orqa tomonida burchakli chiqindisi bor.

Peshona qismidan yuqoriga choʻzilgan, togʻ echkisi shoxiga oʻxshash toʻgʻri shoxi bilan ajralib turadi. Uning tomonlarida toʻrtburchak shaklli flaplar (qopqoqchalar) mavjud boʻlib, ular iyak ostida bogʻlanadi. Shu shoxsiz turdagi bosh kiyim Huvishka, Vasudeva I va Kanishka III tangalarida ham uchraydi.

Oltinchi tur — toʻrtinchi turga oʻxshash, biroq har ikki yonida uchburchak shaklli qopqoqchalar boʻlib, ular iyak ostida tutashadi. Peshonadagi bezak mukammal doira shaklida boʻlib, ehtimol markazida tosh bilan bezatilgan gʻildirak koʻrinishidagi nishon boʻlgan. Ushbu bosh kiyim choʻqqi bezagiga ega boʻlib, yonlari va peshona qismi marvaridli chet bilan bezatilgan.

⁸ Rosenfield, John M. *The Dynastic Arts of the Kushans*. Berkeley: University of California Press, 1967. P. 70.

Yettinchi tur — yumaloq dubulg'a, shaklan birinchi turga o'xshash, ammo soyabon o'rnida peshonasida ikki tishli (vilkasimon) nishon joylashgan. Uning yonida ochiq doira shaklidagi naqsh, tepasida cho'qqi bezagi va marvaridli diadem (yoki tasma) mavjud⁹.

Ushbu bosh kiyimlar turining xilma-xilligi Kushon hukmdorlik ikonografiyasida hukmdor timsolining nafaqat siyosiy, balki diniy-majoziy mazmun kasb etganini ko'rsatadi.

Bosh kiyimlardagi shox, marvarid, g'ildirak, pat va qimmatbaho toshlar bilan bezaklar hokimiyat qudrati, osmoniy himoya va ilohiy legitimatsiya g'oyalarini ifodalagan bo'lishi mumkin

Xulosa

Kushon ikonografiyasidagi bosh kiyim va harbiy timsollar davlat hokimiyatining siyosiy va diniy g'oyalarini aks ettiruvchi muhim belgilar bo'lgan. Tangalar, haykallar va devoriy tasvirlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hukmdorlar obrazida ilohiylik va qudrat birlashgan holda namoyon etilgan. Bosh kiyimlarning shakl, bezak va ramziy elementlari hokimiyatning qonuniyligi, osmoniy himoya va g'alaba timsoli sifatida ishlatilgan. Shu jihatdan Kushon san'ati nafaqat estetik, balki mafkuraviy-ma'naviy mazmunni ham mujassam etgan bo'lib, u imperiya siyosiy ideologiyasining muhim ifodasi sifatida tarixiy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Хўжайев А. Ўзбек халқи ва давлатчилиги тарихи манбалари туркистон Хитой ёзма манбаларид. Тошкент. 2024.
2. Skinner, Michael. Marks of Empire: Extracting a Narrative from the Corpus of Kuṣāṇa Inscriptions. 2017.
3. Акеров Т. А. Усуни-кыргызы Кыргызы на просторах Евразии (Мигрaционные и этнические процессы кочевников Притяньшанья и сопредельных регионов в VIII-XIV вв.). Бишкек. 2020.
4. Nikonorov V. P. The Armies of Bactria. Vol. I. Yorkshire, UK. 1997.
5. Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент. 2001.
6. Ставийский Б.Я. Кушанская Бактрия: Проблемы истории и культуры. М., 1977.
7. Ртвеладзе Э.В., Алимова Д.А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. 1-жилд. Тошкент. 2021.
8. Пугаченкова.Г. Скульптура Халчаяна. Москва. 1971.
9. Siddiqui K. S., Hakal M. Depiction of Footwear in Gandhara Art: An Appraisal //Journal of Asian Civilizations. – 2018. – Т. 41. – №. 1.
10. Rosenfield, John M. The Dynastic Arts of the Kushans. Berkeley: University of California Press, 1967.

⁹ Rosenfield, John M. *The Dynastic Arts of the Kushans*. Berkeley: University of California Press, 1967. pp. 70-71.